

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ

2023

DAVRIYLIGI:
2018-2023



SPEKTROSKOPIYA -
MATERIYANI BILISH USULI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORUJY O'LIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



YANVAR
№48

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
3-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-3**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-3**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 48-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 20 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Ғайбуллаева Юлдуз Анваровна ЎЗБЕКИСТОНДА АЁЛЛАР ЛИБОСЛАРИНИ ЯРАТИШ БЎЙИЧА СОВЕТ ТАШКИЛОТЛАРИ ВА ТИКУВЧИЛИК ФАБРИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАР (1946-1991 ЙИЛЛАР)	7
2. Rajabova Hilola TARIX DARSLARIDA O‘YINLI TECHNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH	10
3. Hamidov Salohiddin Ochilovich MILLIY MA’NAVIYAT NAZARIYASIGA DOIR ILMIY QARASHLAR VA MUNOSABATLARNING VUJUDGA KELISHI	11
4. Qosimov Abdisattor Choriyevich CHORVACHILIKDA AHOLINING IJTIMOY HAYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR VA MUAMMOLAR	13
5. Qulmurodova Feruza Murodovna TA’LIMDA “USTOZ –SHOGIRD” TIZIMI-SIFAT VA SAMARADORLIK KAFOLATI	15
6. Алимова Ғунчaxon Бахадировна ХИВА ХОНЛИГИДА КУТУБХОНАЧИЛИК ИШИНИНГ РИВОЖИ	16
7. Саидакбар Мухаммадаминов XII АСР САМАРҚАНДА БИР МАДРАСА ТАЪЛИМ ДАСТУРИДАН ЎРИН ОЛГАН КАЛОМГА ОИД МАТНЛАР БАЎНИ	18



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

ЎЗБЕКИСТОНДА АЁЛЛАР ЛИБОСЛАРИНИ ЯРАТИШ БЎЙИЧА СОВЕТ ТАШКИЛОТЛАРИ ВА ТИКУВЧИЛИК ФАБРИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАР (1946-1991 ЙИЛЛАР)

Гайбуллаева Юлдуз Анваровна

Тошкент шаҳридаги Вебстер университети доценти

Аннотация: 1946-1991 йилларда Ўзбекистонда хотин-қизлар либослари асосан тикувчилик фабрикаларида тикилган. Ушбу бтикувчилик фабрикалари ўз навбатида давлат ташкилотлари тасарруфида бўлган. Бу ҳолат тикувчилик фабрикалари ва бошқарув ташкилотлари ўртасида ўзига хос муносабатлар ўрнатилишига олиб келган. Бошқача айтганда, совет ҳокимияти тикувчилик соҳасида ўз сиёсатини олиб борган ҳамда бунини ишлаб чиқарувчи корхоналарга ўз топшириқларини бериш орқали амалга оширган.

Калит сўзлар: Тошкент Модалар уйи, “совет моделлари”, тикув дастгоҳлари, ипак матоси.

1950 йилда Тошкент Модалар уйининг вазифалари СССР Енгил Саноат вазирлиги ҳамда Ўзбекистон ССР Енгил Саноат вазирлиги томонидан белгилаб берилган. Унга кўра, модалар уйи ассортиментларни кенгайтириш, турли хил кийим фасонларини кўпайтириш ва ишлаб чиқарадиган маҳсулотларнинг сифатини ошириш белгиланган[1].

Айрим вақтларда юқори ташкилотларга модалар уйларига қандай турдаги кийимлар ишлаб чиқаришни вазифа сифатида берган. Хусусан, 1950 йилда СССР Енгил Саноат вазирлиги ҳамда Ўзбекистон ССР Енгил Саноат вазирлиги Тошкент Модалар Уйига каштали, торли ва аппликацияларни қўллаган ҳолда кийим фасонларини яратишни буюрган[2].

Шу билан биргаликда, ушбу “совет моделлари” тикувчилик фабрикаларида ишлаб чиқаришга қулайроқ ҳамда кенг халқ оммасини турли кийим образларида тасвирлаши лозим эди. Шу сабабли, Тошкент Модалар Уйида меҳнат қилувчи модельерлар ва дизайнер-рассомларга Ўзбекистон ССРдаги миллий кийим намуналарини ўрганиш ҳамда ушбу мавжуд намуналарга ижодий ишлов бериш орқали замонавий модага мослаштириш вазифаси юкланган[3].

Тошкент Модалар Уйидан ипак матосидан 38 турдаги кийим фасонларини яратиб беришни сўраган. Бу ерда асосий урғу ипак матосидан ясалишга тушганлиги учун ишчи-ходимлар ўртасида Марғилон ва Ленинободдаги ипак комбинатларидан буюртма асосида матолар келтирилши тарқалган[4].

Бу ҳолат кийим-кечак ишлаб чиқаришда импорт қилинадиган қиммат матолар пахта ва арзанроқ ипак матоларга алмаштирилаётганлиги билан изоҳланган. Хатда мазкур жараёнда Республика Кийим Моделлари Уйининг моделлаштириш бўлимлари янги хомашёлар асосида кўйлақларнинг янги модел намуналарини ишлаб чиқиш ҳамда тикув дастгоҳларини уларга мослаштириш ишлари билан кўпроқ шуғулланиши қайд этиб ўтилган. Мазкур йилда тикув цехлари асосан янги турдаги матолардан тикилган маҳсулотларнинг апробацияси билан шуғулланган ҳамда замонавий моделдаги кўйлақларни кам серияда ишлаб чиқарган[5].

Бунга сабаб техник хужжатлаштириш жараёнининг мушкуллиги бўлган. Масалан, 1980 йилда Ўзбекистон ССР Енгил Саноат вазирлиги режа бўйича 1000 дона кийим моделларини қабул қилиб олиши лозим бўлган, бироқ улар амалда 945 дона кийим моделларини олган. Бунга сабаб республикадаги “Красная Заря” ва “Ташкентское ПШО” каби бир қанча корхоналар юқоридаги сабабларга кўра ўз моделларини тақдим этмаган[6].

Республика Кийим Моделлари Уйи 1981 йилга қўйилган ержасини бажарариш нореал эканлигини ва режадани кўрсатилган сонларни камайтириш лозимлигини “Узшвейпром” ташкилотига бир неча бор билдирган[7].



Масалан, 1981 йилнинг 3-квартали учун “Ўзшвейпром” тикув фабрикалари ва цехлари олдига 201 хил моделдаги маҳсулотларни ишлаб чиқиш вазифасини қўйган. Улардан 180 таси тикув фабрикалари томнидан ишлаб чиқиш учун олинган, бироқ 21 турдаги моделлар қолиб кетган. Жумладан, “Красная Заря” ПШО 9 турдаги моделни, “50 лет УзССР” ПШО 3 турдаги моделни, “Головных уборов” фабрикаси 4 хилдаги моделни ҳамда Тошкент ПШО 5 хилдаги моделни ишлаб чиқиш учун танлаб олмаган. Шу сабабли, Республика Кийим Моделлари Уйи “Ўзшвейпром”дан 20 турдаги моделни октябрь ойи учун ишлаб чиқаришдан олиб ташлашни сўраган[8].

Республика Кийим Моделлари Уйида халқ истеъмил товарларини ишлаб чиқариш ва уларни аҳолига етказиш мажбурияти мавжуд бўлган. Муассасанинг истеъмол товарларини ишлаб чиқариш режаси “Ўзшвейпром” томонидан белгиланган[9].

Масалан, 1980 йил давомида Республика Кийим Моделлари Уйи мода сифатида талқин қилинган 7 та моделдаги аёллар қўйлагини эксперимент сифати ишлаб чиққан. Янги турдаги тикилган қўйлақларнинг миқдори 500 донагача бўлган бўлиб, бу тикув корхонаси учун кичик партиялар ҳисобланган[11].

Янги моделдаги аёллар қўйлақларининг муаллифлик ҳуқуқини таъминлашга ҳаракат қилинган. Бу асосан маълум ташкилотларнинг ўзларига қарашли тикув корхоналарида яратилган кийим моделларининг бошқа фабрикаларда ишлаб чиқарилмаётганлиги билан амалга оширилган. Жумладан, 1980 йилда Республика Кийим Моделлари Уйи “муаллиф назорати” жадвалини ишлаб чиққан. Ушбу жадвал асосида муассаса ходимлари ўзларига қарашли корхоналарда ишлаб чиқилган янги моделдаги қўйлақларнинг бошқа корхоналарда тикилмаётганлигини назорат қилган. Мазкур жадвалга кўра, Республика Кийим Моделлари Уйи 5 та тикув корхонасида муаллиф назоратини амалга оширган[12].

1980 йилда Республика Кийим Моделлари Уйи жами 1400 турдаги кийим моделларини яратган. Уларнинг фақатгина 179 таси ишлаб чиқариш учун яратилган. Бошқача айтганда, ушбу 179 турдаги моделдан кийимлар тикилган. 824 та кийим моделлари эса конструкция моделлари ҳисобланган. Қолган 397 та янги турдаги моделлар кўргазмаларда намоиш қилиш учун яратилган[13].

1980 йилда Республика Кийим Моделлари Уйи вазирликка 1341 та ўзлари томонидан яратилган қўйлақ моделларини тақдим этган бўлса, уларнинг 1280 таси вазирлик томонидан маъқулланган[14]. Рассом-дизайнер, конструктор ва технологлар янги моделдаги кийим-кечакларни яратишда ва ишлаб чиқаришда нафақат модани ҳисобга олган, балки ўша тикув корхонасининг техник салоҳиятини ҳам инобатга олишга мажбур бўлган.

Хусусан, Қашқадарё, Сурхондарё, Хоразм, Қорақалпоғистон АССР ва Навоий вилоятларида тайёр газлама ва трикотаж моллари ишлаб чиқарадиган йирик корхоналар мавжуд бўлмаган. Бошқа томондан, ушбу кўрсаткичлар фақатгина фабрика саноати билан боғлиқ бўлган маълумотлар бўлиб, ҳар бир вилоятда яқка тартибда тикувчилик ишларини олиб бораётган шахслар мавжуд эди. Улар эса мазкур статистикага киритилмаган[15].

1987 йилда Республика Кийим Моделлари Уйи томонидан Хоразм тикувчилик фабрикаси, Андижон тикувчилик фабрикаси ва Наманган тикувчилик фабрикасида 30 мартаба “муаллифлик назорати” тадбирлари ўтказилган[16].

Республика Кийим Моделлари Уйининг “Тажриба цехи” ҳам мавжуд бўлган. Ушбу цехнинг вазифаси маҳсулотлар ассортиментини кенгайтиришдан иборат бўлган. 1987 йилда ушбу цехда 150 нафар ишчи-ходим меҳнат қилган. Уларнинг 6 нафари апробация гуруҳини ташкил этган. Улар харидорларнинг талабани ўрганиш мақсадида мода маҳсулотларни ўрганиб борган ва шу орқали харидоргир кийим маҳсулотлари ишлаб чиқарилган[17].

Хулоса тарзда айтиш мумкинки, совет даврида аёллар либосларини яратиш бўйича бошқарув ташкилотлари ва тикувчилик фабрикалари ўртасида ўзига хос муносабатлар мавжуд бўлган. Бу муносабатлар асосан тикувчилик фабрикалар фаолиятини назорат қилишга йўналтирилган бўлган. Мазкур жараёнда бошқарув ташкилотлари тикувчилик фабрикаларига маълум соҳада топшириқ бериш орқали бу муносабатлари амалга оширган. Хусусан, янги кийим моделларини ишлаб чиқаришга жалб қилиш учун Енгил саноат вазирлигининг руҳсатини олиш лозим бўлган. Бунда вазирлик қайси хотин-қизлар либослари андозаларини тикиш ва тайёр маҳсулотга айлантиришни ҳал қилган.



Адабиётлар:

1. ЎзМА, Р.2872-фонд, 1-рўйхат, 5-иш, 80-варақ.
2. Djuraev Ravshan Xurramovich. The role of livestock products in the foreign trade of Uzbekistan in 1917-1941 years. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Volume: 6 | Issue: 8 | August 2020 || Journal DOI: 10.36713/epra2013 || SJIF Impact Factor: 7.032 || ISI Value: 1.188. – Pp. 250-252.
3. ЎзМА, Р.2872-фонд, 1-рўйхат, 5-иш, 80-варақ.
4. ЎзМА, Р.2872-фонд, 1-рўйхат, 9-иш, 7-варақ.
5. Djuraev Ravshan Xurramovich. Livestock situation and problems in Fergana region. SJIF Impact Factor: 6.260| ISI I.F.Value:1.241| Journal DOI: 10.36713/epra2016 . ISSN: 2455-7838(Online). EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5 | Issue: 3 | March 2020. – Pp. 194-196. Article DOI:
6. ЎзМА, Р.2872-фонд, 1-рўйхат, 396-иш, 52-варақ.
7. ЎзМА, Р.2872-фонд, 1-рўйхат, 396-иш, 54-варақ.
8. ЎзМА, Р.2872-фонд, 1-рўйхат, 396-иш, 55-варақ.
9. Radjabov O. Railways of Uzbekistan During the Second World War // European Journal of Life Safety and Stability (EJLSS) ISSN 2660-9630. – Volume 11, 2021. – Pp.195-197. (№23. SJIF Impact Factor 2021:5,63).
10. ЎзМА, Р.2872-фонд, 1-рўйхат, 396-иш, 72-варақ.
11. ЎзМА, Р.2872-фонд, 1-рўйхат, 396-иш, 86-варақ.
12. ЎзМА, Р.2872-фонд, 1-рўйхат, 396-иш, 81-варақ.
13. Раджабов О.А. Взгляд на историю железных дорог Узбекской ССР в 1930-1935 гг. // World science: problems and innovations: сборник статей LIX Международной научно-практической конференции. – Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение». 2021. – С. 99-102.
14. ЎзМА, Р.2872-фонд, 1-рўйхат, 396-иш, 89-варақ.
15. ЎзМА, Р.2872-фонд, 1-рўйхат, 396-иш, 89-варақ.
16. Раджабов О.А. История развития железнодорожного транспорта в Узбекистане // Актуальные вопросы, открытия и достижения: сборник статей XXVIII Международной научно-практической конференции. – Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение», 2021. – С. 94-97.
17. ЎзМА, Р.2872-фонд, 1-рўйхат, 396-иш, 89-варақ.



TARIX DARSLARIDA O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Rajabova Hilola,

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani ayrim fanlar
chuqur o‘rganiladigan va chet tillari chuqur
o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab
internati tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanining muximligi, uning qiziqarliligi va o‘yinli texnologiyalardan foydalanish yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: O‘yin, tarix, texnologiya, bilim, xona, o‘quvchi.

O‘yinli texnologiyalar ta‘lim jarayonining samaradorligini ta‘minlash, o‘quvchilarda muayyan faollikni yuzaga keltirish, shuningdek bilim ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga hizmat qiluvchi vaqt oralig‘ini qisqartirish, ta‘limni jadallashtirishga yordam beradi.

O‘yinli texnologiyalardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo‘ladiki uning oqibatida har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi, ijtimoiy hayotda o‘zi egallagan o‘rnini barqarorlashtiradi, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini hosil qiladi. O‘yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy ko‘nikma va malakalarga aylanishini ta‘minlabgina qolmay, balki o‘quvchilarda muayyan ahloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga yordam beradi.

O‘yinlarni tashkil etishda quyidagi maqsadlar ko‘zda tutiladi: ta‘limiy (didaktik) maqsad, tarbiyaviy maqsad, faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltiruvchi maqsad, ijtimoiy maqsad.

Zakovat o‘yini.

Bu o‘yinni o‘tkazishda dastlab xonani o‘yinga moslashtirish lozim bo‘ladi.

O‘yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o‘quvchilar o‘yinda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi. O‘yin qatnashchilari

6-8 kishidan iborat bo‘ladi. Qolgan o‘quvchilar esa o‘yinni tomoshabin sifatida kuzatib turishadi. O‘yin uchun mo‘ljallangan savollar konvertga joylashtirib qo‘yiladi. Guruh sardori savolni olib o‘qituvchiga beradi. O‘qituvchi savolni o‘qib eshittiradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o‘yin ishtirokchikari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o‘yinni asosan yuqori sinfda o‘tkazish tavsiya qilinadi.

Zakovat o‘yinlarida asosan, o‘rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

"To‘g‘ri top" o‘yini uchun ikkita plakat kerak bo‘ladi. O‘qituvchi birinchi navbatda biror mavzu bo‘yicha kalit so‘zlarni boshlanishini yozib qo‘yadi, o‘quvchi esa tartibni o‘zgartirgan holda kalit so‘zlarning davomini yozib qo‘yadi. O‘yinni 6-sinflarda "Qadimgi dunyo tarixini davrlashtirish" mavzusini o‘rganishda qo‘llash mumkin.

1. Poleolit bu...
2. Mezolit bu...

O‘yin shu tarzda davom etadi. Ushbu o‘yin o‘quvchilarda fanga yoki o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 6-sinf tarix darsligi
2. Q. USMONOV, M. SODIQOV S. BURXONOVA”O‘ZBEKISTON TARIXI” Toshkent «IQTISOD-MOLIYA»2016



MILLIY MA'NAVIYAT NAZARIYASIGA DOIR ILMIY QARASHLAR VA
MUNOSABATLARNING VUJUDGA KELISHI

Hamidov Salohiddin Ochilovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi
(ma’naviyat asoslari)” mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola yosh avlodni milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga doir ilmiy qarashlarning vujudga kelishi, milliy ruhda tarbiyalashi, ma’naviyatni to‘g‘ri anglab etishiga erishishda hamda ushbu sohani yanada rivojlanishiga hissa qo‘shgan ajdodlarimiz haqida qisqacha bayon keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy ma’naviyat, avesto, allomlar, vatanni sevish, ajdodlar merosi, komillik.

Milliy ma’naviyat – har bir millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o‘tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma’naviyati mazmuini muayyan bir tizim sifatida anglanishi tushuniladi. Milliy ma’naviyatimiz ham tarixiy hodisa, ham zamonaviy voqelik bo‘lib, millatning o‘tmishi, buguni, hamda kelajagini o‘zida mujassam etadi. U millatimizning ma’naviy takomil jarayoni bilan bog‘liq va nafaqat ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy merosda, balki bugungi kun va kelajak avlodlarning hayotga munosabatida, orzu-istaklarida o‘z aksini topgandir. Uning teranligi va ko‘lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to‘plagan yaxlit tarixiy-ma’naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan birga xalq donishmandligining turli suratlarda zuhur etishi ham u haqdagi nazariy xulosalarning manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, yurtimizdagi bizga ma’lum ilk shakllangan yaxlit ma’naviyat tizimi “Avesto” kitobida o‘z aksini topgan. Bu kitob mustaqillik sharofati bilan hozirgi o‘zbek tiliga to‘liq tarjima qilinib nashr etildi. Bir paytlar bu kitob muqaddas “mazdayasna” diniga asos bo‘lgan bo‘lsa, bugun biz unga yirik adabiy yodgorlik sifatida qaraymiz. “Avesto” matnlari shakllangan, yig‘ilgan va qayta yig‘ilgan davrlar asotir tafakkur davri bo‘lgani sababli bu kitobda bayon etilgan ma’naviy qadriyatlar tizimi keyinchalik boshqa yurtlarga tarqalib, turli siyosiy, g‘oyaviy ta’sirlar ostida ko‘p joylarida mushriklik aqidalari bilan chalkashib ketdi. Masalan, Zardusht gohlarida tilga olingan 7 amshosipandlar mohiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, qadim avesto tilida Spinta Maynyu (Sipand Miynu) - “tafakkur olami”, Ashah Vahishta (Ardabehesht) – “go‘zal haqiqat”, “mukammal nizom”, Vuhuvmana (Bahman)– “ezgu niyat”, Spinta Ormaitiy (Ispandormaz) - “komil aql”, Zashra Vayrayah (Shahriyor)– “umid dunyosi”, Amirmitota (Amurdod) – “umrboqiylik”, “abadiyat”, Xavravatot (Xo‘rdod) – “komillik”, “to‘g‘rilik” ma’nolarini anglatib kelgan.

Keyinchalik kohinlar talqinida bularning har biri ilohiy xilqat sifatida tasavvur qilinib, ularga sig‘inish qoidaga aylangan ya’ni Zardusht da’vatidagi yagona Parvardigor - Axura Mazda (ilohiy bilim egasi, ma’nosida) ga e’tiqod qilish o‘rniga yuqoridagi kabi ma’naviy qadriyatlarni ilohlar, ya’ni sig‘inish ob’ektlariga aylantirish holati yuz bergan. Islom dini bu sohada masalani oydinlashtirdi. Qur’oni karimning nozil bo‘lishi bilan umumbashariy miqyosda uzil-kesil asotir tafakkurdan ilmiy tafakkurga o‘tishning e’tiqodiy asoslari mukammal tus oldi. Keyinroq borib ma’naviyatga oid fanlarning umummetodologik asosi - naqliy va aqliy bilimlar uyg‘unligi mustahkam poydevorga ega bo‘ldi. Xalqimizning o‘tmishda islom ilmlari rivojiga qo‘shgan ulkan hissalarini jahon tan olgan ulug‘ allomalari Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, buyuk tasavvuf pirlari Abduxoliq G‘ijduvoni va Bahouddin Naqshband kabi tabarruk siymolarning millatimiz ma’naviy takomiliga qo‘shgan xizmatlari bilan bir qatorda, matematika va astronomiya singari aniq fanlar; meditsina, farmakognoziya, mineralogiya kabi tabiiy fanlar; logika, filologiya va jamiyatshunoslik fanlari sohalarida jahon ilmi rivojiga barakali ta’sir ko‘rsatgan qomusiy allomalar Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy, Mirzo Ulug‘bek kabi mo‘tabar zotlarning har biri xususida alohida to‘xtalib, ularning nafaqat milliy ma’naviyatimiz, balki bashariyat ma’naviy takomiliga ko‘rsatgan ta’sirlarini birma-bir qayd etib o‘tilishi bu soha olimlari uchun muhim nazariy-metodologik namuna sifatida qabul qilishga arziydi. XX asr boshlarida el-yurt manfaati uchun jonlarini tikkan ma’rifatparvarlarimiz Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurrauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab fidoiy insonlarning ma’naviy jasoratini, ulardan keyin xalq orasida nom qozongan Qori Niyoziy, Toshmuhammad Sarimsoqov,



Habib Abdullaev, Sa'di Sirojiddinov, Obid Sodiqov, Yahyo G'ulomov, Ozod Sharafiddinov kabi ilm-fan arboblari, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Zulfiya, Said Ahmad singari shoir va adiblar, Lutfixonim Sarimsoqova, Halima Nosirova, Olim Xo'jaev, Razzoq Hamroev va boshqa atoqli san'atkorlarning xizmatlarini minnatdorlik bilan eslab o'tadi. Shu bilan birga yangi davr ya'ni XVII – XX asrlarda ona zaminimiz – Turkistonda yuz bergan siyosiy parokandalik, hukmron kuchlarning uzoqni ko'rolmasligi va ma'naviy zaifligi, bularning oqibatida xalq boshiga tushgan baloyu kulfatlarni ham taassuf bilan qayd etishni unutmadi. Shunday qilib, milliy ma'naviyat, avvalo, tarixiy hodisadir. O'rta Osiyo xalqlari tarixining ibtidosi asrlar qa'riga singib ketgan bo'lib, ular bosib o'tgan necha ming yillik ma'naviy kamolot pillapoyalarini aniqlash bugun uchun muhim muammodir. Biz bugungi kunda milliy ma'naviyatimiz nazariyasini yaratish uchun avvalo uning tarixiy takomilini batafsil ko'zdan kechirib chiqishimiz kerak bo'ladi. Ayni shu masala bilan shug'ullanuvchi fan “Ma'naviyatning rivojlanish tarixi” bo'lib, uning asosiy mavzu doirasi - mustaqil O'zbekiston uchun eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan milliy ma'naviyatimizning takomil tarixi, asosiy qadriyatlarini, shakllanish yo'llari xususidagi milliy ma'naviy merosimiz an'alariga tayanuvchi nazariy xulosalar va qarashlar tizimidan iborat. Ammo milliy ma'naviyat tarixi bilan siyosiy, ijtimoiy, hatto madaniy hayot tarixi orasida muhim farqli jihatlar mavjud. Avvalo milliy ma'naviyat tarixi millatning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq. Unda ba'zan asrlar kunlarga, va aksincha, kunlar asrlarga teng bo'lishi mumkin.

Millatning ma'naviy kamoloti zamonda, ya'ni uning butun tarixi davomida yuz beradi, ammo u ba'zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba'zan esa ma'lum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Bir narsa ayonki, tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o'tib ketadi, moddiy madaniyat unsurlari emiriladi, ma'naviyat esa yuksalib, boyib, tobora kengroq ko'lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyati ma'naviy tanazzulga yuz tutgan fojeiy sharoitlarda ham milliy ma'naviyat yo'qolmaydi, ko'lam va mazmunda o'zi etishgan kamolot bosqichini yo'qotmaydi. Chunki buning uchun ajdodlar yaratgan barcha ma'naviy merosni mahv etish, insonlar xotirasini, hatto irsiy xotirani ham barbod qilish kerak. Mustaqillik tufayli bizning ma'naviy qadriyatlarimiz, o'tmish ajdodlarimiz qoldirgan meros, o'zining butun mukammalligida, qaychilanmasdan, “progressivreaktsion” atalmish zo'raki qoliplarga tiqishtirilmasdan tiklana boshladi. Qur'oni karim, hadisi shariflar birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi, Nosiriddin Rabg'uziy, Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Muhammad Rahimxon Firuz, Burxoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur Moturidiy, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon va boshqa “sovet davrida” hatto nomlarini eslash man qilingan allomalarimizning asarlari birin-ketin nashr etilib, chanqoq kitobxonlar qo'liga etib kela boshladi. Davlat tili haqidagi qonun qabul qilindi. Tasavvuf pirlari - Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband yubileylari millatimizning ruhida poklanish tuyg'ularini uyg'otdi. Poytaxtimizning qoq markazida sohibqiron bobomiz Amir Temurning ulug'vor mujassamasi o'rnatilishi o'zbek xalqining har bir farzandi ruhida haqli iftixor hislaridan o'chmas yog'du paydo qildi. XX asr boshlarida millatni ma'rifat, adolat, hurriyat sari etaklagan jadid allomalarimiz xalq dilidan yana munosib o'rin ola boshladi. “Bosmachi” deya yoppa qoralangan milliy ozodlik harakati ishtirokchilari o'z qadrlariga loyiq baholandi. Sovet davrida bizda, birinchi navbatda, falsafa, qolaversa, boshqa barcha inson va jamiyatga oid fanlar ham Evropa madaniyati an'analari asosida, uning ham asosan bir yo'nalish - marksistik materializm yo'nalishi bilan bog'liq holda shakllandi. Hatto o'z ma'naviy merosimizni ham begona qoliplarga moslab o'rganishga urindik. Shunday ekan, bugungi kunda milliy ma'naviyatimizni nazariy asosda jiddiy o'rganishga kirishishimiz bejiz ega emas ekan. Xulosa o'rnida O'zbekiston jahonning eng ma'rifatli mamlakatlari orasida barqaror rivoj topishi, milliy iftixor tuyg'usi bilan yo'g'rilgan, ammo millatchilik va milliy mahdudlikdan holi, hur va erkin fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga o'z tanlagan yo'li borligi va bundan hech qachon qaytmasligini qayta va qayta ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomnazarov M. “Milliy ma'naviyat bosqichlari”, Toshkent - 2010
2. Imomnazarov M. “Milliy ma'naviyatimiz asoslari”, Toshkent - 2006
3. Otamurotov S. “Milliy rivojlanish falsafasi”, Toshkent- 2005
4. Avesto. T. «Sharq»,2001.(Asqar Mahkam tarjimasini).



CHORVACHILIKDA AHOLINING IJTIMOIIY HAYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR VA MUAMMOLAR

Qosimov Abdisattor Choriyevich,

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi
kafedrası tadqiqotchisi, abdisattorq@gmail.com
+998915803366

Annotatsiya: Mazkur maqolada qo'ychilik sohasi, qoramol parvarish qilishga yo'naltirilgan xo'jaliklar, viloyatlar aholisini chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlashda qo'ychilikning ahamiyati, chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirilgani haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: chorvachilik, yaylov, ozuqa, omuxta yem, dehqon xo'jaliklari, sut, voha.

Mamlakatimiz chorvachiligi bir qancha katta yaylov yerlariga ega. Ularning aksariyati Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida joylashgan. Yaylov chorva mollarining (qo'ylar) asosiy qismi shu yerlarda boqiladi. Surxondaryo viloyatida yaylovlar nisbatan kamroq edi. Shu sababli, qoramollar uchun senaj (tabiiy o'tlar) tayyorlash ham muayyan qiyinchiliklar bilan bog'liqligini e'tiborga olish zarur. Qoramol parvarish qilishga yo'naltirilgan xo'jaliklar, odatda, sug'oriladigan hududlarda joylashgan, senaj esa dasht va tog'oldi hududlarida tayyorlanadi. Bu hududlarga borib, ozuqa tayyorlash va olis masofaga olib kelish mehnat resurslarini jalb qilish, transport texnikasini talab qiladi hamda bu ozuqa qiymatini oshiradi. 2000 yilda vohadagi yaylovlar maydoni jami 854,2 ming ga yerni tashkil etgan bo'lib[1], respublikamizdagi jami yaylovlarning umumiy maydoni 15881,2 ming ga yerni tashkil etgan[2]. Asosan yaylovlardan chorvachilikda foydalanilgan. Vohadagi yaylovlarning katta maydoni tog'oldi hududlariga to'g'ri keladi (44 %)[3]. Aholi qishin-yozin turg'un yashayotganligi sababli, qishloqlar va quduqlar atroflaridagi yaylov hududlariga bo'lgan tazyiq kuchaymoqda, ya'ni yaylovlardan foydalanish tartibsiz holda olib borilib, ko'pchilik yaylov maydonlaridan haddan tashqari tinimsiz foydalanish oqibatida yaylovlar qurib borishi, sifatsiz yaylov ozuqasi bilan oziqlangan chorva mollarining mahsuldorligi esa past bo'lishi, eng achinarlisi, ushbu yaylovlarning umuman yaroqsiz holatga kelib qolish xavfi yuzaga kelmoqda[4]. Ilgari chorvadorlar tomonidan yaylovlardan mavsumiy tarzda foydalanish ularning tanazzulga uchrashidan saqlagan[5]. 2000 yilda bahorning quruq kelishi natijasida respublika yaylovlari tabiiy o'tlar o'smasdan, rivojlanmasdan qoldi. Natijada, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, G'uzor, Bohoriston, Muborak, Qamashi tumanlarida 47-54, Samarqand viloyatining Nurobod, Qo'shrobd tumanlarida 35-42, Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on, Sherobod tumani xo'jaliklarida qo'ylarning 37-43 foiz oriq va o'rtacha past semizlik darajasiga tushib qoldi[6].

Sariosiyo tumanidagi Uzun o'rmon xo'jaligida 2005 yil 1 yanvar holatiga 2464 bosh qo'y-echkilar mavjud bo'lib, xo'jalik viloyat aholisini chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlashda o'z hissasini qo'shib kelgan. Biroq, xo'jalik tasarrufida kuz-qish davrida chorvani boqish uchun yaylovlar yo'qligi chorva bosh sonini ko'paytirish va uni parvarish etishga jiddiy to'sinlik qilgan[7].

2007 yilda viloyatda yaylovlarning keskin yetishmasligi sezildi. Mavjud yaylovlar, jumladan, fermer xo'jaliklaridagi yaylovlar ham kamayib ketgan. Qoramol parvarish qilayotgan fermerlarning yarmidan ko'pi e'tiroficha, chorva mollarini boqish uchun jamoat yaylovlari yetishmasdi. [8].

Viloyat fermerlarning 26 foizi 2006 yil davomida o't va pichan, 10 foizi ozuqabop jo'xori sotib olgan. Bu ozuqa asosan xususiy shaxslar va boshqa fermer xo'jaliklaridan kam miqdorda sotib olinadi. Boshqa ozuqalar, odatda, bozordan yoki boshqa fermerlardan kam miqdorda xarid qilinadi. Fermerlarning 30-60 foizi zarur miqdorda ozuqa sotib olish imkoniyatiga ega emas edi. Buning asosiy sababi narxining balandligidadir. Bundan tashqari, kunjara va sheluxa sotuvda kam uchraydi[9].

Mutaxassislarning fikricha, viloyatda chorvachilikni ozuqa bilan ta'minlanishning asosiy muammolaridan biri omuxta yem ishlab chiqarish va sotish tizimining qoniqarsiz ahvolda ekanida edi. Omuxta yem sifati past bo'lib, ko'p hollarda ularning tarkibida mexanik qo'shimchalar ham bo'ladi. Sotilayotgan kunjara va sheluxada namlik va uchuvchanlik darajasi 16,8 foizni tashkil qiladi. Holbuki, davlat standartlari bo'yicha kunjara bunday ko'rsatkichlar



9-11, sheluxada 14 foiz bo‘lishi kerak. Omuxta yem asosan parrandachilik xo‘jaliklari va jamoa chorvachilik fermalariga sotildi[10].

Yuzaga kelgan vaziyatning asosiy sababi shundaki, omuxta yem ishlab chiqarish sohasida yagona – “O‘zdonmahsulot” aksionerlik kompaniyasi faoliyat ko‘rsatadi va u omuxta yem sifatini va narxini belgilaydi. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2008 yil 11 sentabrda qabul qilingan muvaqqat Nizomga muvofiq birja xizmatlari uchun 15 foizlik va savdo nuqtalari uchun 15 foizlik ustama belgilangan. Omuxta yem sotish bo‘yicha mavjud tizim (ishlab chiqaruvchi-birja-savdo nuqtalari-sotib oluvchi) uning narxini 50-70 foizga oshiradi. Bundan tashqari, 2008 yilning kuzigacha davom etgan don narxining muntazam oshishi ushbu ozuqalar narxini jiddiy ravishda ko‘tardi va bu aholiga ushbu ozuqadan keng foydalanish imkonini bermadi, chorva mahsulotlarining qimmatlashishiga sabab bo‘ldi. Masalan, 2007 yilning 10 avgustida 374 ming tonna omuxta yem ishlab chiqarilgan. Ushbu sanoat tarmog‘i uchun erkin xomashyo bozorining yo‘qligi bunday korxonalar tarmog‘ini kengaytirishga monelik qilayotgan asosiy sababdir.

Viloyatda dehqon xo‘jaliklarida sut sog‘ib olish ularning ozuqa bilan ta‘minlanish darajasi o‘rishiga qarab ko‘payishini ko‘rsatdi. Ozuqadan foydalanish yetarli bo‘lmagan darajadan yetarli darajagacha va maqbul darajagacha oshirilganida, sut sog‘ish miqdori ancha oshgani kuzatildi. Masalan, viloyatda ozuqa sifati yetishmasligidan aziyat chekkan dehqon xo‘jaliklarida sut sog‘ib olish miqdori o‘rtacha 730, chorva mollarini saqlash uchun yetarli miqdorda ozuqaga ega xo‘jaliklarda 840, chorva mollari yaxshi oziqlantiriladigan xo‘jaliklarda 930 kilogramni tashkil qildi[11].

Darhaqiqat, yuqori sifatli ozuqadan foydalanish sut sog‘ishda ijobiy samara beradi, ammo, yaylovlarning bunday ozuqa bilan ta‘minlangani kutilgan samarani bermaydi. Chorva mollarini o‘t sifati past bo‘lgan yo‘llar yoqasida boqishga ko‘nikib qolgan dehqonlarda sut sog‘ib olish miqdori o‘z mollarini bu tarzda boqish unchalik keng ommalashmagan chorvador-fermerlarga qaraganda pastligi ham shundandir.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi. 8-jild. – B. 157.
2. Farmonov T. Yaylov ekologiyasini yaxshilashda chorvachilikning o‘rni // Ekologiya xabarnomasi. 1-son. 2001. – B. 16.
3. Surxan-Sherabadskaya dolina // Sbornik nauchnykh trudov TashGU.–T., 1964. – S. 140.
4. Ya.A.Turdimuratov Ya.A. XX asrda surxon-sherobod vohasi areal xo‘jalik madaniyati (chorvachiligi misolida). Tarix f. nom. dis.–Toshkent:2019-B. 21.
5. Traditsionnye znaniya v oblasti zemlepolzovaniya v stranax Tsentralnoy Azii: Inform. sbornik / Pod obsh. red. G.B.Bekturovov, O.A.Romanovoy. – Almaty: S-Print, 2007. – S. 15.
6. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi 1091- fond, 1-ruyxat, ish- 982, 139-varaq.
7. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi 1091- fond, 1-ruyxat, ish-1991, 44-v.
8. Madaminov K. Chorvadorning yon daftari. – T.: Mehnat, 1988. – B. 4.
9. O‘zbekistonning yillik statistik to‘plami. 2006 y–Toshkent,2006–B. 169.
10. O‘zbekistonda chorvachilik: bugungi holat, muammolar va taraqqiyot istiqbollari. Agrar sektorni rivojlantirish tendentsiyalari nuqtai nazaridan tahlil. - Toshkent, Nasaf nashriyoti. 2010. B.91.
11. Surxondaryo viloyatining yillik statistik to‘plami. 2007 yil. –Termiz, 2007. –B. 102.



ТА’ЛИМДА “USTOZ –SHOGIRD” TIZIMI-SIFAT VA SAMARADORLIK KAFOLATI

Qulmurodova Feruza Murodovna,
Navoiy viloyat Xatirchi tumani
30-umumta’lim maktabning
tarix fani o’qituvchisi

Mustaqillik yo’lida dadil borayotgan O’zbekistonning bugungi kunida yoshlarni kamolotga intilish ma’naviy qadriyatlarni tiklash va Vatanga sadoqat tuyg’ularini o’stirishda ulkan tadbirlar olib borilmoqda. O’zbek xalqining o’tgan ajdodlar tomonidan yaratilib meros bo’lib qolgan madaniy boyliklari xazinasiga xalq orasidagi ustoz-shogird an’alarini kiritish mumkin.

Ustoz-inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi, uning komillik pillapoyasi tomon odimlashiga ko’maklashuvchi jonkuyar, mehribon shaxsdir.

Bilamizki, ustoz degan sharafli nomga sazovor bo’lish har kimga ham nasib etmaydi. Bu ulug’ nomni olish uchun ko’p yillar davomida murakkab sinovlardan o’tish lozim bo’lgan. Ko’plab mutaxassislar orasida bu sharafli nomga kamdan kam inson muyassar bo’ladi.

Ko’hna tarix varaqlansa, har bir ulug’ zotning ustoz-u shogirdlari bo’lganligiga guvoh bo’lamiz. Chunki ustozsiz shogird bo’lmaydi.

Tarixning guvohlik berishicha, Ahmad Yassaviy yirik mutasavvuf olim Arslonbobo qo’lida tarbiyalanadi, so’ng Buxoroga borib Yusuf Hamadoni qo’lida tahsil oladi. Alisher Navoiy Nizomiy

Ganjaviy (XII asr), Xusrav Dehlaviy (XIII asr), Abdurahmon Jomiy (XV asr) kabi mashhur mutafakkir shoirlar asarlarini o’qib-o’rganish tufayli ustozlar qatoridan joy oldi, ulug’landi. Ularning barchasini o’ziga ustoz, ruhlantiruvchi pir deb bildi. “Xamsa” dostonlarning muqaddima qismida ustozlariga bag’ishlab maxsus boblar yozib, ularni ulug’laydi:

Yo’ldasa bu yo’lda Nizomiy yo’lim,

Qo’ldasa Xusrav bila Jomiy qo’lim,-

Hayot yo’li afsonalarga qorishib ketgan, surati-yu siyrati rivoyatlarda bayon etilgan, xalq orasida Haqqa oshiqlikning timsoli bo’lib gavdalangan Mashrab tariqat rahnamosi sanalgan Mullo Bozor Oxunddan ta’lim oladi. Ustoz maslahati bilan Koshg’arga –Ofoqxo’ja dargohiga boradi va yetti yil tahsil olib, avliyo zot bo’lib yetishadi. XX asr o’zbek adabiyoti namoyandalaridan biri bo’lgan Usmon Nosir Cho’lponni o’zining eng buyuk ustoz deb hisoblagan. Avloddan avlodga ko’chib kelayotgan ustoz-u shogirdlik an’anasi bugungi kunda ham davom etmoqda.

Ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, o’qituvchilarga amaliy-metodik yordam berish, ayniqsa, maktablarda endi ish boshlagan o’qituvchilarga ish jarayonini to’g’ri tashkil etish uchun maslahatlar berish, pedagogik jamoalardagi tajribali o’qituvchilarga izdoshlarini biriktirish maqsadida Xalq ta’limi tizimida „Ustoz-shogird maktabi“ tizimli ravishda tashkil etilgan. „Ustoz-shogird maktabi“ an’anasiga ko’ra yosh kadrlar malakali ustozlarga biriktiriladi.

Ustoz shogirdlarining darslarini kuzatadi, tahlil qiladi, amaliy-uslubiy tavsiyalar berib boradi. Zamonaviy o’quv laboratoriya asbob-uskunalarini va jihozlaridan samarali foydalanish bo’yicha shogirdlariga ilg’or pedagogik tajribalarni o’rgatadi va amalga tatbiq qilishga ko’maklashib boradi. „Ustoz-shogird maktabi“ yosh o’qituvchining shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, amaliy ko’nikmalarga ega bo’lishning uslubiy bazasini takomillashtirishga yordam beradi.

Tarixiy tajriba va an’analarga amal qilar ekanmiz, ta’lim sohasida o’z kasbining fidoyilari bo’lmish o’qituvchi va murabbiylarimiz yosh avlodni tarbiyalashda ulkan muvaffaqiyatlarni qo’lga kiritadilar.



ХИВА ХОНЛИГИДА КУТУБХОНАЧИЛИК ИШИНИНГ РИВОЖИ

Алимова Гунчaxon Бахадировна
Урганч Давлат Университети
Мустақил тадқиқотчи
Телефон: +998 (99) 018 54 33
gb.alimova@inbox.uz

Аннотация: Ушбу мақола Хива хонлигида кутубхоначилик ишининг ривожига ҳақида.

Калит сўзлар: Ўрта Осиё, Хива хонлиги, кутубхоначилик, маданият маркази, ёдгорлик.

Китоб ва уни жамиятда тарқатиш йўллари билан бири бўлмиш кутубхона ва кутубхоначилик иши инсоният маданиятининг ажралмас бўлагидир. Кутубхоналарнинг ташкил топиши ва тараққиёти тарихини ўрганмай, ана шу илму маърифат масканларининг мамлакат маданий ҳаётида тутган ўрнига жамиятнинг муносабатини идрок этмай туриб, маданият ҳамда кутубхоначилик иши соҳасида инсоният тўплаган билимларини танқидий ўзлаштирмай ва улардан фойдаланмай туриб, тўлақонли мутахасис бўлиш мумкин эмас. Шу боис Хива хонлиги маданий муҳитининг бир қисми ҳисобланган анъанавий кутубхоначилик тарихи ривожини талқин ва таҳлил қилиш инobatга олинди.

Илм ва маданият маркази ҳисобланган қадимий Хоразм воҳасида китобат санъати ва кутубхоначилик иши бир-бири билан узвий боғлиқ бўлиб, узоқ асрлик тарихга эга. Хонликда маданият намунаси бўлган кутубхоналар катталиги ва нодир қўлёзма асарларга бойлиги билан маълум ва машҳур бўлган. Ўз даврининг буюк кишилари ушбу кутубхоналар хазинасидаги бебаҳо китоблардан мутоаала қилиб, асарларга татигулик асарлар ёзиб, жаҳон илм фанига катта ҳисса қўшганлар ва ўзларидан бебаҳо ёзма мерос қолдирганлар. Шу ўринда ўрганилаётган даврда Хива хонлиги кутубхоналари тарихини ўрганиш асносида, ўтмиш кутубхоналар тарихига назар ташлаб, кутубхоначилик иши ривожини ёритиш мақсад қилинди.

Кутубхоналар ёзма ёдгорликлар сақланадиган жой ҳисобланиб, Ўрта Осиёда ҳам кутубхоналар қадим замонлардан бошлаб мавжуд бўлган. Яъни Ўрта Осиёда эраמידан аввалги I минг йилликнинг сўнгги асрларидаёқ китоб хазиналари ва китоб мажмуалари вужудга келган. Тарихий манбаларда Ўрта Осиёнинг кўп давлатларида хусусан, Сўғдиёна ва Хоразмда II аср охирида кутубхоналар ташкил этилиб, III аср бошларига келиб бой кутубхоналарга айланганлиги тўғрисида маълумотлар ҳам йўқ эмас.

VII аср ўрталарида Шарқдаги кўп мамлакатларда подшоҳлар саройларидаги махсус хоналарда сапол ва пергаментдан иборат ҳужжатлар тўпламлари сақланган. Юнонистонда эса биринчи йирик кутубхона Аристотел (мил.авв. IV аср) ташкил этган. Қадимги даврнинг энг машҳур кутубхонаси Александрия (Искандарийа) кутубхонаси ҳисобланган.

Ўрта Осиёнинг маданий тараққиёти ва санъати босқинчилик юришлар ва мустамлакачилик сиёсати сабаб заволят топди. Беруний ўз асарида араб ноиблари томонидан Сўғд ва Хоразмда битилган китоблар ва китоб сақловчиларнинг йўқ қилинганлиги ҳақида ёзади.

X асрга келиб Ўрта Осиё маданияти кўп жиҳатдан Ғарбий Европа маданиятидан юксак турарди. Жаҳон илм фанига катта ҳисса қўшган машҳур аллома, файласуф ва шоирлар Хоразм ва Бухородаги кутубхоналарда сақланган турли соҳаларга оид китоблардан ўз асарларини ёзишда фойдаланганлар. Бу даврда машҳур маданият ўчоғи саналган Маъмун Академияси қошидаги кутубхона ниҳоятда бой кутубхоналардан саналиб, бу ерда жаҳон дурдоналаридан бўлмиш ноёб, турли соҳага оид китоблар сақланган. Бу заминда Маъмун Академиясининг ташкил этилиши ва унинг фаолияти Хоразмда маданият, санъат ва илм-фаннинг ривожланганлигидан далolat беради. Президент И.А.Каримов ҳам Хива шаҳрининг 2500 йиллигини нишонлашга бағишланган сўзида «Қадим Хоразм диёрида азал-азалдан илму фан, санъат ва хунар равнақ топиб, гуллаб яшнаган. Юртимиздаги дастлабки Байт ул-Ҳикма академиялар, хусусан Маъмун Академияси ҳам айнан шу ерда вужудга келганини доимо фахру ғурур билан эслаймиз», – дейилади. XI-XII асрларда Хоразм, Рай, Ҳамадон ва Исфажон шаҳарларида кутубхоналар бўлиб, улар йирик маданий марказлар ҳисобланганлигини А.А. Семёнов ҳам ўз тадқиқотларида кўрсатиб ўтган.

Юқорида таъкидланганидек, қўлёзма китобларни безаш ва уларни яратиш анъаналари



кейинчалик ислом даврида Мовароуннаҳрда ҳам ривожлана бошлаган. Араблар янги истило қилинган бу ҳудудларга Яқин ва Ўрта Шарқ халқларининг китоб ва китобат иши, хаттотлик санъати анъаналарини ҳам олиб келишган.

Кутубхоналар асосан подшолар, султонлар ва халифалар саройларининг қошида, катта илмий-маданий марказларда, ўқув юртларида, мадраса ва масжидлар қошида мавжуд бўлган. Ҳаттоки китоб коллекциялари мерос сифатида ўтказилган, олди-сотди, импорт ва экспорт объекти бўла бошлаган. Кўпгина ўқимишли одамлар, маҳаллий ҳукмдорлар, катта амалдорлар, сўфийлик тариқатларининг раҳбарлари ўзларининг кутубхона ва архивларига эга бўлганлар. Ўз навбатида улар буюртмачилар ва ҳомийлар, китоб ишларининг ҳимоячилари ролини ҳам бажарганлар.

Хивадаги кутубхоналар биноси ва унда китобларнинг жойлашуви, кутубхоналар тарихини тадқиқ қилиб, кутубхоналар учун алоҳида катта махсус иморатлар қурилмай турли хил шаклдаги хона ёки бўлинмаларда китоблар махсус соҳаларга ва йўналишларга ажратилиб сақлангани ўрганилди. Аммо, тарихий китобларда кутубхоналарнинг тузилиши, уларнинг интерьерлари тўғрисида деярли маълумот берилмаган. Кутубхонада махсус китобхонлар учун қироатхоналар бўлганлиги тўғрисида шу давр кутубхоналари тўғрисида ёзилган китобларда баъзи бир маълумотлар учрайди холос.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи. – Т., 2004. – Б. 6.
2. Қосимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилик тарихи. – Т., 1989; Ахунджанов Е.А. Очерки по истории книги и книжного дела в Средней Азии. Древность. Средние века. – Т., 1993; Шу муаллиф, Историко-типологическое исследование истории книги и книжного дела в Туркестане: Древность. Средние века. Дисс... докт. ист. наук. – Т., 1998; Кормилицын А.И. Рукописные коллекции и библиотеки на территории Узбекистана эпохи средневековья. – Т., 1993.
3. Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи. – Б. 6.
4. Беруний Абу Райҳон. Қадимгм халқлардан қолган ёдгорликлар. Жилд.1. – Т., 1957. – Б. 9, 18, 63.
5. Қосимова А. Библиотечное дело в Узбекистане. – Т.: Узбекистон, 1963. – С. 7.
6. Хива // Хоразм ўлкашунослик жамиятининг нашри. 1997. – № 7-8. – Б.2.
7. Вахидов Ш., Чориев З. Садр-и Зия и его библиотека. (Из истории книги и книжной культуры в Бухаре в начале XX века). Книги, библиотеки, каталоги. Книга 1. – Т.: Янги аср авлоди, 2007. – С. 352.



ХII АСР САМАРҚАНДА БИР МАДРАСА ТАЪЛИМ ДАСТУРИДАН ЎРИН ОЛГАН КАЛОМГА ОИД МАТНЛАР БАЁНИ

Саидакбар Мухаммадаминов,
доцент Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан

Аннотация: Мазкур тезисда Қорахонийлар даврида (1000—1212) Самарқанд шаҳрида Тобғачхон мадрасаси ва масжидида таълим дастуридан ўрин олган каломга оид матнлар ҳақида сўз юритилади. Буни Абу Ҳафс ан-Насафий (ваф. 537/1142 й.) томонидан тузилган “Матлаъ ан-нажум ва мажмау ал-улум” тўпламидан ўрин олган каломга оид матнлар ёрдамида баён қилинган.

Калит сўзлар: *мажмуа, калом, қўлёзма, дастур, Матлаъ ан-нажум, Абу Ҳафс ан-Насафий.*

ХIII асргача Мавароуннаҳр ҳудудларида фаолият юритган мадрасалар таълим тизими хусусан, уларнинг дастурларига оид маълумотлар ҳозирги кунгача номаълум бўлиб келаётгани тадқиқотчилар томонидан алоҳида таъкидланади¹. Биз куйида фикр юримокчи бўлган мавзу ушбу масалага озгина бўлсада ойдинлик киритади деган фикрдамиз.

Ўрта асрларда таълим дастурини тузиш ва уни амалиётга тадбиқ этиш аксарият ҳолатда эътиборли уламолар томонидан амалга оширилиб турилган. Бунга ўз даврининг кўзга кўринган олимлардан бири Абу Ҳафс ан-Насафий (1068-1142й.)ни мисол тариқасида кўрсатиш мумкин. У Самарқанд шаҳрида яшаб фаолият юритган ва машҳур Табғочхон мадрасаси ва шаҳарнинг турли гузарларида жойлашган масжидларда мударрислик қилган. Шулардан бири у ислом илмлари соҳасига оид кўплаб асарлар ёзиш билан бирга, мадраса талабалари учун махсус таълим дастурини ҳам ишлаб чиққан. Ушбу дастуридан ўрин олган “дарслик” матнлар кейинчалик тўплам ҳолига келтирилиб “Матлаъ ан-нажум ва мажмау ал-улум” (“Юлдузлар порлаш жойи ва илмлар мажмуаси”) номи билан машҳур бўлган². Абу Ҳафс ан-Насафийнинг мазкур асари диний ва дунёвий илмларга бағишланган бўлишига қарамадан уларнинг асосий қисмини диний илмлар ташкил этади. Тўплам араб тилида ёзилган бўлиб, унинг ЎзР ФА Шарқшунослик институтида сақланаётган нусхаси Самарқандда асл нусхадан 1365 йилда кўчириб олинган³. Мазкур нусхани кўчирган котибларнинг хабар беришича, Абу Ҳафс ан-Насафий ушбу тўпламдан ўрин олган матнларни мадраса ва масжидларда ёздириб (имлоъ) дарс ўтган⁴. Ўрта асрларда мадраса таълим тизимига мувофиқ талабаларга бошқа илмлар қаторида калом илми ҳам ўқитилган.

Тарихдан маълумки, XI асрга келиб, Мавароуннаҳр ҳудудларида хусусан, Самарқандда ханафийа калом таълимоти – Мотуридийа тимсолида қайта тикланди. XI аср охирларида Насаф воҳасидан етишиб чиққан уч буюк алломаларнинг биргаликда олиб борган илмий фаолияти Самарқанд шаҳри илмий муҳитига таъсир кўрсатди. Садру-л-ислом Абу-л-Йуср Мухаммад ибн Мухаммад ал-Паздавий ан-Насафий (ваф. Бухорода 493/1100 й.), унинг акаси Фахру-л-ислом Абу-л-Ҳасан ‘Али ибн Мухаммад ибн ал-Ҳусайн ибн ‘Абду-л-Карим ал-Паздави ан-Насафий (ваф. Кешда 482/1089 й.) ва Абу-л-Му‘ин ан-Насафий (437-508/1046-1114й.) каби машҳур олимлар Мотуридийа таълимотини ривожланишига муҳим ҳисса қўшди. Ўша давр халифалик сиёсатида юз бераётган ҳолатлар, хусусан исмоийлиё, ашъарийа каби таълимотлар ўртасида юз берган зиддиятларнинг сиёсий тус олиши Мавароуннаҳр уламоларини ҳам бефарқ қолдирмади. Улар турли фирқаларнинг таълимотларига жавоб тариқасида ўз анаъналарини давом эттирди ва мотуридийа таълимотини тиклашга ҳаракат қилди. Абу Ҳафс ан-Насафий ҳам юқорида келтирган олимларнинг ишини давом эттириб, мадраса ва масжидлар таълим тизими учун калом йўналишида дарсликлар тузди. Ушбу дарслик рисола кўринишида бўлиб, унда келтирилган матнлар содда ва ихчам шаклда берилган. “Матлаъ ан-нажум...” да келтирилган биринчи мавзу “Усул ад-дин ‘ала и’тиқод ал-мухтадин” (“Ҳидоят аҳли учун дин асослари”) деб номланади. Бу рисола кейинчалик “Ақоид ан-насафий” номи билан машҳур бўлганлигини алоҳида таъкидлаш зарур. Ҳозирги кунда

1 Б. Валихўжаев. Самарқанд олий таълим мадрасайи олия – университет тарихидан лавҳалар. Самарқанд, 2001 й. Б.18

2 Булгаков П.Г. Неизвестный источник XII века.// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар 1976 й. № 11. 60-63.

3 ЎзРФАШИ Р.1462. Матлаъ ан-нажум ва мажмау ‘улум Вв. 200^а; 216^а; 227^а.

4 Ўша асар. Вв. 227^а; 260^а; 280^а.



мазкур рисоланинг кўплаб нусхалари сақланган бўлиб, у бир қанча замонавий тилларга ҳам таржима қилинган¹. Ан-Насафий ақоид матнини тузишда бошқа муаллифлардан фарқли равишда масалалар баёини батафсил келтирмайди. У каломга оид масалаларни имкон қадар Мотуридийа таълимоти асосида мухтасар қилиб тушунтиришга ҳаракат қилади.

Калом илми билан боғлиқ иккинчи рисола «Тасмият ал-ши‘а ал-аҳаво ва-л-бид‘а» («Адашган ва бидъат йўлига кирган гурухларнинг номланиши») номи остида келади. Унда исломда мавжуд бўлган 73 фирқанинг номи ва уларнинг асосчилари келтирилган. Шу ўринда мусулмон жамоаларининг турли фирқаларга бўлинишига маълум ижтимоий-сиёсий жараёнлар сабаб бўлганлигини ва кейинчалик ушбу зиддиятлар калом масалаларида ўз аксини топганлигини айтиб ўтиш жоиз. Ан-Насафий мазкур матнни яратишда ислом оламида мавжуд бўлган фирқалардан талабаларни хабардор қилиш ва улар орасидан «ҳақ йўлда» бўлган фирқани «ботил» фирқалардан ажрата олишлари учун керак бўлган «кўникмаларни» назарда тутди. Бу эса ўша давр Мавароуннаҳр ижтимоий ҳаётида мавжуд бўлган жамиятнинг фирқаларга бўлган муносабат ва ёндашувларини ҳам очиқ беради. Ан-Насафий мазкур матнни тузишда Абд ал-Қодир ал-Бағдодий (ваф.429/1037й.)нинг «Китаб ал-фарқ байн ал-фирак» («Фирқалар ўртасида фарқ китоби») асаридан фойдаланади ва уни қисқа шаклда истифода этади. Асарда муаллиф Уммавий ва Аббосийлар халифалиги даврида фаолият юритган фирқаларнинг номини келтиради ва уларнинг ақидавий ёндашувларини очиқ беради.

Хулоса қилиб айтганда, Ан-Насафий томонидан калом илмига оид матнларни таълим дастури шаклига келтирилиши XI-XII асрлар Мавароуннаҳр ҳудудида Мотуридийа таълимотини «янгитдан» мустаҳкамлашга замин яратганлигини кўрсатади. Бундан ташқари ан-Насафий томонидан олиб борилган «амалий» фаолият Мавароуннаҳрда «аҳли сунна ва-л-жамоа» позициясини мустаҳкамлашга ва жамиятда мавжуд бўлган турли фирқаларни ягона «аҳли ас-сунна ва-л-жамоа» атрофига жипслашишига олиб келди.

Адабиётлар:

- 1.Валихўжаев Б. Самарқанд олий таълим мадрасайи олия – университет тарихидан лавҳалар. Самарқанд, 2001 й. Б.18
- 2.Булгаков П.Г. Неизвестный источник XII века.// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар 1976 й. № 11. 60-63.
- 3.Наркулова И. Р. РАЗВИТИЕ ПРОЕКТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ КУРСАНТОВ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 7.
- 4.Наркулова И. Р. К. ОБУЧАЮЩАЯ ПРОГРАММА «РУССКИЙ ЯЗЫК ДЛЯ ВОЕННЫХ ЮРИСТОВ» КАК ОДИН ИЗ КОМПОНЕНТОВ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ КУРСАНТОВ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН) //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 225-233.
- 5.Ёкубова И. Р. Роль синтаксической сочетаемости глаголов восприятия при изучении русского языка в высших военных учебных учреждениях //International scientific review. – 2019. – №. LXIV. – С. 77-81.
- 6.Наркулова И. Р. К. СВОЙСТВА ГЛАГОЛОВ АКТИВНОГО ВОСПРИЯТИЯ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 28. – С. 421-423.16:48
- 7.Ёкубова И. Р. СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ ОБЪЕКТА В ВЫСКАЗЫВАНИЯХ С ГЛАГОЛАМИ ВОСПРИЯТИЯ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ //LBC 72 Modern science International scientific journal, № 04, Vol. I, 2019. – 2019. – С. 307.
- 8.Narkulova I. R. VERBS OF PERCEPTION IN RUSSIAN AND THE WAYS OF THEIR TEACHING TO CADETS OF HIGHER MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS // International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 8.
- 9.Наркулова И. Р. К. Реализация межпредметных связей через бинарные занятия (на примере дисциплин «Русский язык» и «Гражданское право») //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 932-935.

1 С. Мухаммадаминов. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг «Ақоид» асарининг қадимий нусхаси // Шарқшунослик. 2007й. № 13. Б.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 3-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000